

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DALAT UNIVERSITETI

MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

4-KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI

TORAQULOV O'KTAMNING

**IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDA HUQUQNING
O'RNINI**

MAVZUSIDA

***MALAKAVIY BITIRUV
ISHI***

(2010-2011 o'quv yili)

Ilmiy rahbar:

Yuridik fanlari nomzodi,

dotsent M.Z.ERGASHEVA

Buxoro-2011

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning o`rni.

Reja:

Kirish.

I. Huquq tushunchasi va mohiyati.

- 1.1. Huquq tushunchasi uning belgilari va mohiyati.
- 1.2. Huquq tamoyillari va ularning tasnifi.

II. Huquqning ijtimoiy qiymati.

- 1.3. Ijtimoiy normalar tizimida huquqning o`rni.
- 1.4. Huquq funksiyalari- ijtimoiy munosabatlarga ta`sir etishning muhim yo`nalishi.

Xulosa.

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Millatning, xalqning ongini o`stirish, o`z haq- huquqlarini uyg`otish, tanitish uchun barkamol avlodni tarbiyalash zamonlar osha va bugungi kunimizning eng muhim dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu eng avvalo shaxs erkinligi, daxlsizligi, o`z faoliyatini erkin rivojlantirishi va kelgusida jamiyatda munosib o`ringa ega bo`lishida eng to`g`ri yo`l bo`lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarda jamiyat hayotini tartibga solishda huquq asosiy rolni o`ynaydi. Mohiyatan olib qaralganda huquq – erkinlikni ta`minlab beruvchi kuch.¹ Zero, biz ham shunday fuqarolik jamiyati qurishimiz kerakki, bu jamiyatning har bir a`zosi o`z huquqlarini bilishi va undan to`la – to`kis foydalana olishi, zarur hollarda o`z huquqlarini himoya qila bilishi, hamda, eng asosiysi boshqalarning huquqlarini hurmat qilishlari lozim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Mustaqillikka erishgach O`zbekistonda huquqiy adolatli, yuksak ma`naviy- madaniyatli fuqarolik jamiyati qurilmoqda. Bu o`rinda eng avvalo barch fuqarolarning, shuningdek, yurtimiz kelajagi hisoblanmish yosh avlodning huquqiy ongini, huquqiy savodxonligini oshirish va bu orqali ularning hatti- harakatlarida to`la-to`kis huquqiy madaniyat ustuvor bo`lishiga erishish bu boradagi asosiy dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu ish huquqning ijtimoiy kuchi qanday ekanligini, uning tartibga soluvchilik kuchi va uning ijtimoiy ahamiyati xususida qator bilimlarni beradi. Mavzuni o`rganish jarayonida har qanday shaxs huquqning qanchalik kerakli soha, muhim hayotiy zarurat ekanligini anglaydi.

¹ N.Javliyev. “Huquq tushunchasi va uning ijtimoiy qiymati” T., TDYI, 2005, 4-b.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ahamiyati. Ta`kidlash kerakki, huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim soha hisoblanadi. Demak, uning ijtimoiy ahamiyati beqiyos. Masalan, huquq mohiyatan olib qaraganimizda adolat va erkinlikni ta`minlovchi asosiy kuchdir. Shaxs qaysi sohada faoliyat ko`rsatmasin huquqqa murojaat qiladi. O`z faoliyatini olib borish va turli tazyiqlardan o`zini himoyalash va hokazo. Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin. Asosiysi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning o`rni va rolining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining o`rganilganlik darajasi.** Huquq zamonlar osha rivojlanib o`zining ahamiyatini kun sayin orttirib borayotgan soha hisoblanadi. Uning ijtimoiy hayotga ta`siri tartibga soluvchilik kuchi tabiiyki erkinlik kafolatidir. Demak, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning o`rni mavzusi ham ko`plab xalqaro huquqshunos olimlar qatorida, bir qator o`zbek olimlarining diqqat markazida bo`ldi. Islomov Z.M., Odilqoriyev X., Tojixonov U. va boshqa ko`plab yirik huquqshunos olimlar bu soha rivojiga katta hissa qo`shib kelmoqdalar.

Demak, har bir fuqaro qanchalik huquq haqida ko`plab bilimlarga ega bo`la borsa, uning ijtimoiy munosabatlardagi rolini to`g`ri tahlil qiladi. Bu orqali esa jamiyatimizning huquqiy madaniyati yuksaladi. Bu ishning asosiy maqsadi ham, vazifasi ham sanab o`tilgan jarayonlarni, rejalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi deb o`ylaymiz.

I. Huquq tushunchasi va mohiyati

1.1. Huquq tushunchasi, mohiyati va belgiilar.

Ehtimol, bir umr aniq fanlar va tarix masalalari bilan qiziq-magan shaxsni topish mumkindir, lekin o'zining asrini huquq masalalari bilan qiziqmay yashagan kishini tasavvur qilish aqlga sig'maydi. Qanchalik odamovi bo'lmang, odamlardan o'zingizni har qancha olib qochmang, huquq masalalarini chetlab o'ta olmaysiz. Kamida bitta huquq – shaxsiy erkinlik huquqingiz sizni qiziqtirmasligi mumkin emas. Odamlardan o'zingizni chetga olar ekansiz siz baribir ularga: “ Bu mening shaxsiy doiram, bu yerga bistirib kirishga haq-qingiz yo'q” deyishingiz kerak.

N.M.Karkunov

Huquq, avvalo tartibga soluvchi kuch sifatida ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham huquqning jamiyat hayotidagi o'rnini beqiyosdir.¹

Bu haqda gapirishdan oldin eng avvalo huquqning o'zi nima? U qanday belgilarga ega? Uning shakllanishi qanaqa bo'lgan? degan savollarga javob izlaymiz. Huquq tushunchasini davrlar osha turli xil ilmiy g'oyalar, turli nazariyalar bilan boyib bordi.

Avvalo huquq tushunchasi haqida to'xtalishdan oldin uning kelib chiqishi va qanday vaziyatda paydo bo'lganligi haqida to'xtalamiz. Turli manbalarning guvohlik berishicha kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabgi davrlarda, ya'ni, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida huquq bo'lmagan. Bu davrda ijtimoiy munosabatlar urf-odatlar, axloq va diniy qoidalar, turli xil man etishlar orqali tartiga solingan.

Sodda ishlab chiqarish munosabatlari xarakteriga ushbu ijtimoiy normalar mos kelgan va ularni ancha samarali tarzda tartiga sola bilgan. Biroq jamiyatning

keyingi taraqqiyoti, xususan, oila, xususiy mulkning paydo bo'lishi va boshqa qator omillar jamiyatdagi yangi vujudga kelgan va avvalgilariga nisbatan ancha murakkab bo'lgan munosabatlarni tartibga solishning boshqa qoidalarini taqozo eta brogan. Bundan tashqari davlatni boshqaruvida ham uning bazi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi uchun ham aniq belgilangan normalarga ehtiyoj sezildi. Davlat bunday holatlarning oldini olish uchun, xususan, ijtimoiy tengsizlik, turli mulkiy munosabatlar va shu kabi jamiyat hayotidagi tartibsiz jarayonlarning oldini olish maqsadida huquqni joriy etdi.

Bu o'rinda "davlat" tushunchasi ham "huquq" tushunchasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Davlat tushunchasi uning kelib chiqishini izohlashda esa avvalo jamiyat, fuqarolik jamiyati tushunchalarini bilish, izohlashga to'g'ri keladi.

Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehtiyolari asosida paydo bo'lgan. "Davlat" tushunchasiga nisbatan "jamiyat" tushunchasi kengroq hisoblanadi.¹

Fuqarolik jamiyati jamiyatning bir ko'rinishi bo'lib, yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lgan jamiyatdir.

Demak, davlat jamiyatning bir ko'rinishidir. Endi kishilar davlatga birlasha boshladi. Bu ularning hayot tarzi o'zgarib rivoj topib borishiga zamin edi. Davlat ham jamiyatning rivoji, uning boshqaruvi va umumiy tartibotni ta'minlash maqsadida yozma qoidalar- huquqni joriy qildi.

Huquq paydo bo'lishi bilan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda sodir bo'ladi, buning sababi shundaki huquqda, boshqa qoidalar dan farqli ravishda umummajburiylik xususiyati xos, ya'ni, huquqda belgilangan hatti-harakat qoidalari, majburiyatlar barcha fuqarolar tomonidan albatta bajarilishi

¹ Z.Yoqubov., E.Hayitboyev. "Huquqshunoslik". T. , "Yangi asr avlodi", 2006,6-b

shart. Aks holda ularning bajarilishini davlat o'zining majburlov funksiyasi orqali taminlaydi.¹

Shunday qilib, huquq kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida ijtimoiy zarurat natijasida, davlat bilan birga vujudga kelgan. Demak, huquq ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat rivojining ,mahsuli sifatida maydonga chiqqan. Jamiyatdagi boshqa ijtimoiy normalar bilan birgalikda inson hatti-harakati, yurish-turishini tartibga soluvchi vosita sifatida maydonga chiqib, kishilar va ular o'rtasidagi munosabatlar hamda ijtimoiy muloqot ishtirokchilari hatti-harakatlarini tartibga soladi.²

Huquq jamiyatdagi turli qatlamlar,tabaqalar, guruhlar, millatlar va elatlar o'rtasida ijtimoiy ahllikni, kelishuvni ta'minlaydi. U insonlar tomonidan yaratiladigan moddiy va ma'naviy qiymatlarni adolatli tarzda ta'minlanishiga xizmat qiladi. Huquqning eng muhim jihatlaridan biri shaxsning erkinligi o'lchovi va me'yori ekanligida namoyon bo'ladi. Chunki huquqda nimalarni sodir etishdan odam o'zini tiyishi kerakligi aniq ko'rsatib qo'yilgan bo'ladi.

Huquq ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga nisbatan bir xil choralarni qo'llaydi, ya'ni ularning ijtimoiy ahvoli, aqliy qobiliyati, jismoniy kuchi va boshqa jihatlariga qaramasdan ularga bir xil yondoshadi, masalan, qoidasini buzmaslik majburiyati mansabdor shaxsga ham, oddiy fuqaroga ham, sportchiga ham, oddiy talabaga ham, bir xildadir, javobgarlik sohasidagi ayrim imtiyozlar bundan mustasno,masalan, jinoyat qonunchiligiga binoan ayollarga jazo tayinlashda ayrim imtiyozlar nazarda tutilgan , bu imtiyozlar insonparvarlik nuqtai nazaridan amalga oshiriladi,shuningdek, aqli noraso shaxslar ham javobgarlikdan ozod etiladi va hokazo.

Bunga o'xshagan misollarni jamiyat hayotining turli sohalarini o'rganish orqali ko'plab keltirish mumkin.

¹ N.Javliyev. "Huquq tushunchasi va uning ijtimoiy qiymati". T.,TDYI.2005 ,13-b.

² M.Ahmadshoyev., M.Najimov. "Huquq nima?".T.,TDYI,2003,7-b.

Demak, bu jihatlarni to'la o'rganib tadbiq qilib huquqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Huquq bu- davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki sanksiyalanadigan, bajarilishi davlat tomonidan ta'minlanadigan umummajburiy xarakterga ega bo'lgan hatti- harakat, yurish- turish qoidalari majmuidan iboratdir.¹

Yurisprudensiyada obyektiv huquq va subyektiv huquq ajratib ko'rsatiladi. Bu tushunchalar bir- biri bilan o'zaro aloqador, bog'liq bo'lsada har holda ikki hodisani anglatadi:

-obyektiv huquq

-subyektiv huquq

Obyektiv huquq – biron bir shaxsning xohish irodasidan tashqarida mustaqil holda mavjud huquqdir, ya'ni u umuman olganda tushuniladigan huquqdir. Masalan, biron bir soliq to'lovchining xohishidan tashqarida mustaqil holda shakllangan O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi. Bu qonunchilik muayyan bir, alohida shaxslarni xohish istagidan qat'iy nazar mavjud va amal qiladi, ya'ni obyektiv ravishda mavjud. Demak, obyektiv huquq obyektiv ma'nodagi huquqning aynan o'zidir.

Subyektiv huquq obyektiv huquqdan farq qiladi. Subyektiv huquq – aniq bir shaxsga tegishli bo'lgan huquq hisoblanadi. Bunga shaxs bilan bog'liq ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, shaxsning ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi, yoki bo'lmasa shaxsning mehnat huquqi va boshqalar.

Subyektiv huquqi shaxsga u yoki bu hulq - atvor, hatti-harakat ko'rinishini tanlash huquqini beradi, uning erkinligini taminlaydi, tashabbus ko'rsatish, mustaqilligini namoyish etishga imkon yaratadi, masalan, bir shaxs o'zining konstitutsyaviy huquqlaridan foydalanib, kasaba uyushmasiga, yoshlar tashkilotiga yoki bo'lmasa siyosiy partyalarga a'zo bo'lsa, ikkinchi bir shaxs esa na kasaba

¹ M.Ahmadshoyeva, M.Najimov."Huquq nima?".T.,TDYI,2003,9-b.

uyushmasi, na yoshlar tashkiloti va na siyosiy aʼzosi emas, bu ikki shaxs ham bu holatlarda huquqqa, qonunga muvofiq harakat qilishmoda, faqat ularning birinchisi ijtimoiy faol shaxs, ikkinchisi esa jamoat ishlariga uncha moyil boʻlmagan shaxs boʻlishi mumkin. Bu holat shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi ishtirokini belgilaydi.

Subyektiv huquqning muhim jihati boʻlib, unda shaxsning tanlash huquqi mavjudligi boʻlsa, yuridik majburiyatda esa shaxsda bunday imkoniyat yoʻq, yaʼni shaxs oʻziga yuklatilgan majburiyatni xohlasa –xohlamasa bajarishi shart, masalan, barcha ishlaydigan fuqarolar davlatga soliq toʻlashlari shart, yaʼni barcha insonlar konstitutsiya va qonunlarga rioya etishlari shart va boshqalar.

Huquq tushunchasini yanada chuqurroq anglash uchun uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Huquq tushunchasining tarkibiy qismlaridan biri huquq belgilaridir.

Huquq belgilari huquqni tushuncha sifatida tavsiflaydi. Huquqshunos olimlar huquq belgilarining turlarini koʻrsatib oʻtadi.

Professor Z. Islomov huquqning bir qancha turlarini ajratib koʻrsatadi:

- huquq-qonun darajasiga koʻtarilgan iroda;
- huquqning rasman aniqligi;
- huquqning tizimlilik;
- huquq joʻshqinligi (dinamizmi);
- huquq-turli kishilarga teng miqyosda boʻlish;
- huquqning davlat tomonidan oʻrnatilishi;

Rus olimi Bovilevning fikriga koʻra huquq ning asosiy belgilari boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

- huquq – huquqiy normalar tizimidir;
- huquq – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi tizimdir;
- huquq – insonning tabiiy huquq va erkinliklari yigʻindisidir;
- huquq jamiyat va davlat tomonidan oʻrnatiladi;
- huquq insoniy adolat va shaxsiy erkinlik gʻoyalariga asoslanadi;

- huquq turli hayotiy faoliyat sohalaridagi shaxsning, jamiyatning va davlatning manfaatlarini ifodalaydi;
- huquqqa rasmiy manbalarda o`z aksini topgan rasmiy muayyanlik xosdir;
- huquq umumiy va majburiy xarakterga ega;
- huquq ijtimoiy munosabatlar va odamlarning yurish-turishiga ta`sir qiladigan tizim sifatida davlat va jamiyat tomonidan ta`minlanadi.

Demak, huquqning belgilari ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning rolini tushunishda muhim tushunchalar bo`lib hisoblanadi.

Huquqni tushunishda uning ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchilik rolini aniqlashda uning mohiyatini tushunish muhim ahamiyatga ega. Demak, huquq tushunchasi, huquqning mohiyati bilan uzviy bog`liqdir. Mohiyat huquqni anglashda asosiy tushunchadir. Bu o`rinda yana bir tushuncha - “mazmun” tushunchasi ham mavjud. D.A. Kerimov mohiyat va mazmun tushunchalarini taqqoslagan holda, mohiyat kategoriyasiga oydinlik kiritadi: “Agar mohiyat huquq aslida nima ekanligini ochib bersa, mazmun huquqning nimadan iborat ekanligini belgilaydi.”

Biroq biz sovet davridagi huquqni tushunishning o`ziga xos xususiyati bo`lmish iroda huquqning mohiyati degan va hozirgi kunda ham uchrab turadigan nuqtai - nazaridan yiroqdamiz.

“Davlatdagi ma`lum shaxslarning irodasi, barcha fuqarolarning irodasi” ekanligini tan olish huquqiy uydirmadir degan fikrni bildirgan I.Petrajiskiy huquq mohiyatini tushunishga ancha yaqinlashgan.

Huquq favqulodda muhim ijtimoiy hodisa sifatida quyidagi umumiy va alohida belgilarga ega:

- 1) Huquq normativ ko`rsatmalardan iborat;
- 2) Huquq adolat va erkinlik g`oyalarini ifodalaydi;
- 3) Huquq o`z inikos etish predmetiga ega;
- 4) Huquq inson xulq-atvorini tartibga soladi,uning tafakkuri va hissiyotiga ta`sir etadi;

5) Maxsus ifoda shakli bo`lgan qonunchilik huquqqa xos xususiyatdir.¹

Biz huquqning mohiyatini tushunishda uning bir qismini ya'ni, erkinlik tushunchasini izohlaymiz. Erkinlik to`g`risidagi nazariyalar qadimdan dolzarb mavzu sifatida o`rganiladi, uning mohiyati turli xil tahlil qilinadi. Falsafa tarixida erkinlikka turlicha yondashadigan ikki xil nuqtai – nazarni kuzatish mumkin. Bir guruh faylasuflar (Spinoza, Golbax, Gegel.) mazkur tushunchani zarurat tushunchasi bilan tenglashtiradilar.

Ikkinchi guruh faylasuflar esa erkinlik tushunchasini zarurat tushunchasiga qarama - qarshi qilib qo`yadilar. Amerikalik faylasuf Gerberd J. Myuller shunday deb yozadi: “ Oddiy qilib aytganda, inoson o`zining irodasiga rahbarlik qilish, burch va o`ziga munosib maqsad tusunchasini belgilab olishi bilan o`z ixtiyoriga ko`ra biror ishini bajarish yoki uni bajarmaslik imkoniga ega bo`lganligi, mustaqil qaror qabul qila olganligi, har qanday savolga va buyruqqa “ha” yoki “yo`q” deb javob bera olganligi uchun erkindir.

Erkinlikni “nimani xohlasam o`shani qilaman” prinsipi asosida tushunishni ayrim falsafiy lug`atlarda uchratish mumkin: “Erkinlik – xohlaganda harakat qilish imkonidir”. Lekin bui ko`proq o`z boshimchalikning ta`rifiga to`g`ri keladi. Gegel bu haqda shunday deydi: “Erkinlikni xohlagan narsani qilish imkoni deb tushunish fikrlash madaniyatining yo`qligidan dalolat beradi. Erkinlikni yaxshiroq tushunish uchun uni mazmun jihatidan ikkiga bo`lib o`rganish lozim. Xohlash erkinligi va amalga oshirish erkinligi yoxud ichki va tashqi erkinlik mavjud bo`lib, tashqi erkinlik ichki erkinliksiz mavjud bo`la olmaydi. Tashqi erkinlik kengroq va mazmunliroqdir. U ichki erkinlikning davomi va yakunidir. Tashqi erkinlik ichki erkinlik uchun shunchalik zarurki, usiz ichki erkinlik bo`lishi mumkin emas. Ichki erkinlikda menda xohlash erkinligi bor xolos. Albatta, xohlash erkinligi uni amaga oshirish erkinligi bilan to`ldirilishi kerak. Boshqacha aytganda, ichki erkinlikdan mantiqan tashqi erkinlik talabi kelib chiqadi. Xohlash erkinligini amalga oshirish erkinligi bilan davom ettirish, ichki erkinlikni tashqi erkinlik bilan to`ldirish kerak.

¹ Z.M.Islomov “Davlat va huquq nazariyasi” .T., Adolat,2007,465-467-b

Lekin, bu xohishdan kelib chiqadigan oqibatga hukmronlik qilib bo'lmaydi va bu yerda biz erkinlikning chegaralari muammosiga to'qnash kelamiz va bu bizni huquq masalasiga olib keladi. Inson o'ziga tegishli bo'lgan erkinlikni amalga oshirish uchun boshqalarning ham erkinligini inobatga olishi zarur, ya'ni, individning erkinligi ma'lum darajada chegaralanishi kerak. Aynan mana shu yerda savol tug'iladi: insonning erkinligini cheklash bilan jamiyatdagi barcha individ manfaatlarining muvozanatini qanday qilib tartibga solish mumkin? Bu vazifani ijtimoiy normalar va ayniqsa, huquq amalga oshiradi.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Huquqiy demokratik davlat qurish uchun mustahkam poydevorni yaratishda faqat yaxshi qonunlarning qabul qilinishining o'zi kifoya emas. Maqsadga belgilangan sur'atlarga etish uchun amaldagi qonunlarning bajarilishi katta ahamiyatga ega. Agar qonunlar ijro etilmasa, ularga mensimay qaralsa, oddiy qog'ozdan farqi bo'lmaydi. Qonun - huquqiy davlatning poydevori bo'lsa, qonuniylik huquqiy davlatning asosiy tamoyili shartidir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining asarlarida, nutqlarida qonuniylik masalasiga, qonunlarning ijrosiga juda katta e'tibor beradi va bu masalaning muhimligini ta'kidlaydi. Qonuniylik bir necha printsiplari mavjud. Ular:

- qonunning ustunligi;
- fuqarolarning qonun oldida tengligi;
- qonuniylikning yagonaligi;
- qonuniylikning maqsadga muvofiqligi;
- qonuniylikning demokratiya bilan bog'liqligi;
- qonuniylikda xalq ishtiroki;

yuridik normalarni buzganlik uchun barcha sub'ektlarning javobgarligi va boshqalar.

Shunday qilib, huquq va erkinlik o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Huquq bir kishining erkinligini cheklash hisobiga boshqaning erkinligini ta'minlab beradi,

ya'ni, huquq bu – erkinlik demakdir. Huquqning mohiyati individ erkinligini ta'minlashdan iborat. Gegel ta'kidlaganidek, inson – erkin mavjudotdir. Bu uni tabiatining asosiy ta'rifini tashkil etadi. Erkinlik – bu inson ongli mavjudot sifatida rivojlanadigan o'ta muhim sharoitdir. Individ erkinligini ta'minlash mas'uliyati esa huquqqa yuklangandir. Huquq erkinlikning huquqiy erkinlikka aylanishiga sabab bo'ladi va erkinlik huquqiy xarakterga ega bo'lgandagina huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

1.2. Huquq tamoyillari va ularning tasnifi.

1.2. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi. Bu prinsip barcha fuqarolar, milliy, jinsiy, diniy va boshqa mansubliklardan, mansab yoki boshqacha mavqelaridan qat'ut nazar, teng umumfuqarolik huquqlari va majburiyatlariga egaliklari, qonun oldida bir xilda mas'ul ekanliklarida o'z ifodasini topadi.

Qonun oldida tenglik huquqi har qanday adolatli va demokratik jamiyat uchun eng asosiy huquqlardandir. Boy va qashshoqligi, etnik ko'pchilikka yoki diniy ozchilikka mansubligi, hukumatning siyosiy ittifoqdoshimi yoki uning muholifimi –bundan qat'iy nazar, istalgan kishi qonun oldida bab-baravar muhofaza etilish huquqiga egadir.

Demokratik davlat hamma odamlarga bir hil hayot sharoitini yaratib berishni kafolatlamaydi va u o'z zimmasiga bunday majburiyatni ololmaydi ham. Biroq deb yozadi konstitutsiyaviy huquq bo'yicha mutaxassis Jon P.Frenk, “har qanday holatda ham davlat qo'shimcha tengsizlikni yuklamasligi kerak; barcha odamlarga bir hilda vat eng munosabatda bo'lish undan talab etiladi”.

Hech kim qonundan ustun turolmaydi. Zotan, qonun halq bo'yniga majburan ortilgan narsa emas, balki halqning o'z ijodi mahsulidir. Demokratik tuzumda fuqarolar qonunga bo'ysunadilar. Chunki ular, bilvosita bo'lsa-da, o'zlari ham shu qonunning yaratuvchilari ekanliklarini tushunishadi. Xalq tomonidan yuzaga keltirilib, keyin uning o'zi bo'ysunadigan, itoat etadigan qonun ham qonun

foydasiga , ham demokratiya manfaatlariga xizmat qiladi. Shu jihatdan taniqli huquqshunos, akademik Sh. O'razayevning kuyunchaklik bilan aytgan quyidagi so'zlari g'oyat ibratlidir: "Prezident I. Karimov e'lon qilgan besh tamoyildan biri-Konstitutsiya va Qonunlarga so'zsiz amal qilish, Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash, odamlarni qonunga itoat etish ruhida tarbiyalash – konstitutsiyaga rioya qilishning qudratli omilidir. Shunga erishilgandagina biz huquqiy davlatda yashayapmiz, deya olamiz ". ¹

Shunday qilib, mazkur prinsip, **birinchidan**, davlat barcha fuqarolarining avval boshdan teng mavqega ega bo'lganliklarida namoyon bo'ladi. **Ikkinchidan**, u teng umumfuqarolik huquqlarida o'z ifodasini topadi. Respublikamizda bu huquqlar davlatimizning asosiy qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlarida kafolatlangan hamda saylash va saylanish huquqi, mahnat qilish, sog'ligini muhofaza etish, ma'lumot olish, hususiy mulkka ega bo'lish va boshqa huquqlarni o'z ichiga oladi. Uchunchidan, ushbu prinsip qonun oldidagi baravar javobgarlikda ifodalanadi. Bu esa, mansab va xizmat mavqelaridan qat'iy nazar, isnisnosiz barcha fuqarolar sodir etilgan huquqbuzarlik uchun javob berishlari kerak deganidir.

Davlat bilan shaxsning o'zaro mas'uliyati prinsipi. Davlat va shaxs huquq va majburiyatlar biilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. Har ikki tomonning o'z majburiyatlarini buzishi yuridik javobgarlikka olb kelishi darkor. Bunday holatda o'z fuqarolariga nisbatan yo'l qo'yilgan har qanday zo'ravonlik ko'rinishlari uchun davlat o'z mansabdor shaxslari timsolida yoki umuman javob beradi. Bu prinsip batafsilroq sharhni talab qiladi.

Shunday qilib, demokratiya hukumat halqqa hizmat qilish uchun mavjud bo'ladi, lekin zinhor halq hukumatga xizmat qilish uchun yashamaydi, degan tamoyilga asoslanadi. Boshqacha aytganda, ular demokratik davlat fuqarolari bo'lib, uning tobelari emas. Lekin, modomiki davlat o'z fuqarolari huquqlarini

¹ O'razayev Sh. Konstitutsiyaviy sud qanday bo'lmog'i kerak? // Istiqlol yo'li. T., "O'zbekiston" 1995, 43-bet

himoya qilar ekan, fuqarilar ham bunga javoban davlatga nisbatan o'z sadoqatlarini namoyon etadilar. Da'vomiz quruq bo'lmasligi uchun shu o'rinda jamiyatda ayrica ajtralib olingan organizmga aylangan, odamlardan sadoqatni va hizmat qilishni talab etib, buning evaziga o'z harakatlari uchun ularning roziligini olishni ep ko'rmaydigan avtoritar davlatni qiyosan ko'rib chiqamiz.

Demokratik jamiyatda fuqarilar saylovlarda ishtirok etarkanlar, ular nomidan mamlakatni kim boshqarishini hal qilish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini amalgam oshiradilar. Avtoritar davlatda esa, aksincha, ovoz berish faqat rejimning o'zi bajarib bo'lgan saylovga qonuniy tus berish uchun xizmat qiladi.

Harbiy xizmat- demokratik va nodemokratik jamiyatda huquq va majburiyatlar keskin qarama-qarshiligining yana bir yorqin misoli bo'la oladi. Har qanday mamlakat muayyan yoshga yetgan o'z yigitlaridan tinch vaqtlarda harbiy hizmatni o'tashni talab qilishi mumkin. Lekin avtoritar davlatda mazkur majburiyat bir tomonlama yuklanadi. Demokratik jamiyatda harbiy hizmatning bu davri yigitlarning burchi hisoblanadi. Ushbu burchni fuqarolar o'zlari saylab qo'ygan hukumat qabul qilgan qonunlar vositasida o'z zimmalariga oladilar. Albatta, har bir jamiyatda tinch davrlarda harbiy hizmatni o'tash odamlar uchun yoqimli bo'lmasligi mumkin. Biroq, askarlikdagi fuqaro demokratik mamlakatda jamiyat o'z zimmasiga ihtiyoriy qabul qilingan majburiyatni bajarayotganligini ongli ravishda his etib hizmat qiladi. Bundan tashqari, demokratik jamiyat a'zolari jamoa bo'lib harakat qilib, bu majburiyatlarni o'zgartirishlari mumkin: AQShda bo'lganidek, harbiy hizmatni bekor qilib, ihtiyoriy armiyani tashkil etishlari, yaqinda Germaniyada yuz berganidek, harbiy xizmat muddatini o'zgartirishlari mumkin va hokazo.

Shunday qilib, insonning o'z huquqlaridan foydalanishi ham o'z manfaatlari, ham boshqalar manfaati uchun shu huquqlarni himoya qilish va mustahkamlash majburiyatini ko'zda tutadi. Biroq hatto rivojlangan demokratik mamlakatlar

fuqarolari ham mazkur tenglikni noto'g'ri tushunishadi hamda ko'pincha majburiyatlarni inkor etishadi va huquqlaridan keng foydalanishadi.

Xolbuki, huquq va shaxslar singari jamiyatdan ajralgan holda tanho amal qilmaydi. Huquq shaxslarning hususiy mulki bo'lmay, jamiyatning boshqa a'zolari tomonidan e'tirof etilgan taqdirdagina mavjud bo'ladi. Amerika faylasufi Sudney Huk qayd etganidek, saylovchilarning "o'zlari o'z erklarining soqchilaridir". Shu nuqtai nazardan ham fuqarolar tomonidan saylangan va ularga hisob berib turuvchi demokratik hukumat shaxs huquqlarining dushmani emas, balki, aksincha, ularni himoya qiladi, aynan, shu maqsadda o'z huquqlarini mustahkamlash uchun demokratik jamiyatda fuqarolar o'z zimmalariga majburiyatlar qabul qiladilar hamda ular bo'yicha vazifalarni ado etadilar.

Huquq tamoyillariga bevosita kirishdan oldin tamoyil tushunchasini izohlashga harakat qilamiz. Tamoyil tushunchasi bosh g'oya, asosiy qoida manolarini anglatadi. Bundan tashqari u qonuniyat, mohiyat kabi tushunchalar bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Demak, huquqning mazmuni, uning mohiyati va jamiyatdagi vazifasini ta'riflab beruvchi asosiy g'oyalar – huquq tamoyillaridir.

Bu tamoyillar avvalambor huquq qonuniyatlarini ifodalaydi, qolaversa, butun huquqiy tartibga solish sohasida amal qiladigan va barcha subyektlarga nisbatan qo'llanadigan eng umumiy normalardan iborat bo'ladi.

Huquq tamoyillari qonun chiqaruvchi uchun dasturiy g'oyalar sifatida maydonga chiqarkan, huquq normalarini takomillashtirish yo'llarini belgilab beradi. Huquq tamoyillar jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlari bilan huquqiy tizim o'rtasida bog'lovchi vositachi rolini o'ynaydi va oqibat natijada huquqiy tizim jamiyat va inson manfaatlariga, ehtiyojlariga asta-sekin moslashadi.

Ilmiy adabiyotda huquq prinsplarini tarqatish doirasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lishadi:

- umum huquqiy tamoyillar;
- tarmoqlar aro tamoyillar;

-tarmoq tamoyillari;¹

O'zbekiston Respublikasi konstitutsyasining mazmunida quyidagi huquqiy tamoyillarni ko'rish mumkin:

-demokratizm;

-inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

-xalqaro huquqning umumetirof etilgan qoidalari va normalarining amal qilishi;

-konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi;

-teng huquqlilik;

-mulk barcha shakllarinihg tengligi;

-odil sudlov tamoyillari.²

Bundan tashqari, barcha huquq tarmoqlarida birdek amal qiladigan umumhuquqiy tamoyillar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

-adolat tamoyili;

-insonparvarlik tamoyili;

-demokratizm;

-qonunchilik tamoyili;

-fuqarolarning qonun va sud oldida yuridik tengligi;

-huquq va majburiyatlarning birligi;

-ishontirish va majburlov uslublarining uyg'unlashuvi;

-xalqaro huquq normalari ustuvorligi va boshqalar.

Dastavval biz adolat tamoyili haqida to'xtalamiz. Adolatparvarlik tamoyili huquqning umumijtimoiy mohiyatini, huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida, shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat o'rtasidagi murosa yo'llarini ishlashga intilishni eng ko'p darajada ifodalaydi.

¹ Ahmadshoyeva M., Najimov M. Huquq nima? T., TDYI, 2003, 18-b

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'qituvchi, 2008, 17-b.

Huquqni shakllantirish va uni amalga oshirishda demokratizm tamoyili. Huquqiy ijodkorlikda demokratizm huquqiy siyosatni shakllantirish va qonunchilikni takomillashtirishda xalq deputatlari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari harakatlari, fuqarolarning keng ishtirokida namoyon bo`ladi.

Huquqni amalda qo`llashdagi demokratizm ko`rsatkichlari huquqiy normalarni qo`llovchi va huquqni muhofaza etuvchi organlar, eng avvalo, odil sudlov organlarini tashkil etish hamda ularning ish yuritish tartibi, fuqarolar uchun ochiqlik darajasi, aholiga yuridik yordamning saviyasiga bog`liq bo`ladi. Bunda ayniqsa sud va sud xizmatchilari obro`sini ko`tarish katta ahamiyatga ega. Zero, “sud hokimiyati nafaqat uch hokimiyatning biri, balki uning yuksak nufuzli huquqiy holati, jamiyat va davlat hayotida inson huquqlari, demokratiya qonuniylik bo`lishining asosiy shartidir”.¹

Qonuniylik tamoyili.

Bu tamoyil huquqning barcha subyektlari tomonidan huquqiy normalar ko`rsatmalarini qat`iy va to`liq amalga oshirilishini talab etuvchi tamoyildir. Davlat boshqaruvining barcha organlari o`z faoliyatlarini qonun asosida va qonunni bajarish asosida qurishi kerak. Umuman olganda, jamiyatning normal hayoti va davlat organlari faoliyat yuritishning asosi qonuniylik tamoyilidir.

Milliy teng huquqlilik tamoyili.

Mazkur tamoyil ko`p millatli tarkibga ega bo`lgan davlatlar uchun favqulodda ahamiyatga ega. Yuzdan ortiq millat va elatlar istiqomat qiluvchi bizning respublikamiz ham shunday davlatlar sirasiga kiradi. Sobiq ittifoq ning ayrim mamlakatlaridagi achinarli voqealar – millatlar aro nizolar milliy tenghuquqlilik tamoyili poymol qilinganligining yorqin isbotidir. Ushbu tamoyilning ahamiyati millatlar aro nizolar milliy tenghuquqlilik tamoyili poymol qilinganligining yorqin isbotidir. Ushbu tamoyilning ahamiyati millatlararo totuvlik, tinchlik va osoyishtalik hukm surishi bilan belgilanadi. Milliy tenghuquqlilik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, ko`pmillatli davlatning

¹ Tajixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. "O`zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy huquqi". T., Sharq, 2001, 647-b.

barcha fuqarolari, qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tengdirlar. Bu tamoyil qonunchilikda to'la va izchil o'z ifodasini topib , xuddi shunday izchil hayotga tadbqiq etilgandagina haqiqatda ro'yobga chiqadi. Mazkur tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining munosib ifodasini topgan. Asosiy qonunimizning 18-moddasida shunday deyiladi; "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq – va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar.

Insonparvarlik tamoyili.

Huquqning insonparvarligi shundan iboratki, qonunchilik yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan iqtisodiy va ijtimoiy tuzum odamlarni ezish, shaxsga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishlariga nisbatan mutlaqo yo'l qo'ymasligi kerak. Davlat kafolatlari tizimi fuqarolarni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga majburdir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan turli ijtimoiy islohotlarni insonparvarlik sifatida ko'rish mumkin. Masalan: pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, eng kam mish haqlarini oshirish to'g'risidagi keying yillarda qabul qilingan qonunlarni insonparvarlik ifodasi deb hisoblash mumkin.

Huquqning jazolovchi tarmoqlarida, eng avvalo, jinoyat huquqida insonparvarlik eng ko'p namoyon bo'ladi. Jinoyat huquqi jinoyat va jazoni o'zining asosiy tuzilmalari deb biladi.

Jazo choralari o'zining axloqiy va jismoniy alam yetkazishi bilan ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham bu yerda nafaqat adolat, balki insonparvarlik ham favqulodda muhimdir. XVIII italyan huquqshunosi Bekariya shunday yozgan edi: "Faqat shunday jazoni qo'llash kerakki, u... odamlar ruhiga eng kuchli ta'sir o'tkazib, jinopyatchi taniga eng kam azob beradigan bo'lsin".

Ta'kidlab o'tish kerakki, sobiq ittifoq va uning g'oyaviy asosi – marksizm barham topganidan so'ng barcha "izm"larga, shu jumladan gumanizmga ya'ni, insonparvarlikka ham mensimay qarash shakllanib qoldi. Vaholangki,

insonparvarlik fanda ham, ijtimoiy hayotda ham jiddiy va hatto amaliy ahamiyatga molikdir. U huquq uchun ham huquq fani uchun ham muhimdir. Bu holat chetda qolib ketmadi, albatta. Chunki hozirgi zamon sivilizatsiyasi uchun huquqning katta ahamiyatga ega ekanligi isbot talab hodisa emas. Jumladan, S.S. Alekseyev inson hayotidagi uch davr, uch pallani – hokimiyat davri, mulkchilik davri, insonparvarlik g'oyalari davrini alohida ajratib ko'rsatish mumkin deb hisoblaydi. Bu jumlalarga ko'ra u shunday yozadi:

“Hozirgi zamon fuqarolik jamiyati – insoniyat jamiyatining aynan eng hayotbaxsh istiqbollaridandir. Taraqqiyotning bu bosqichi odamlar hayotida endigina boshlanmoqda. U mo'tadil hokimiyatning ham, kapitalizmning ham ijobiy tomonlarini o'ziga singdirmoqda. Bularning hammasi kishilik jamiyatining tub mohiyatini, tabiatini, uning ozodlik sari harakatlarini ifodalovchi insonparvarlik g'oyalari asosida ro'y bermoqda. O'tmish davrlarning o'ta bir yoqlama qarama – qarshiliklarini barham topdirib, insonni uning tabiiy huquqlari bilan birga ijtimoiy hayot markaziga olib chiquvchi taraqqiyotining bunday pallasiga ilg'or, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan mamlakatlar kirib bormoqda”¹

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, erkin fuqarolik jamiyatiga o'tishda insonparvarlik xislatlari har bir shaxsda rivojlanib bormog'i lozim. Bu esa o'z navbatida huquqiy davlat qurishda, uning boshqa sohalarida ham rivojlanib borishida eng muhiom kategoriya hisoblanadi.

II. Huquqning ijtimoiy qiymati.

2.1. Ijtimoiy normalar tizimida huquqning o'rni.

Huquq normalari normativ tartibga soluvchilar sifatida ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishni, jamiyatni tashkil etishning zarur darajasini, davlat va normat tashkilotlarning aniq va samarali ishlashini taminlaydi.

¹ Alekseyev S.S. “Теория права”.М.,Бек,1995,27-б.

Ijtimoiy normalar tizimi normativ tizimi normativ tartibga solish tizimining bir qismigina ekanligini qayd etish lozim. Chunki jamiyatda ikki turdagi normalar (xulq-atvor qoidalari) ijtimoiy texnik va sof normalar amal qiladi. Binobarin, odamning tabiat, texnika bilan munosabatlaridagi yoxud jtimoiy munosabatlar soasidagi hatti harakatlarini tartibga solish uchun normalardan foydalaniladi. Normative tartibga solish tizimi, normalarni ancha keng darajasini qamrab oladi. Shuning uchun ham tizimni jamiyatda odam xulq atvorlarini birlashmalar. Jamoalar doirasida ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar hamda ularning tabiat bilan o'zaro munosabatlarni qatuy belgilovchi ijtimoiy texnik normalar majmuyi deyih mumkin.

Jamiyatda amal qiladigan barcha normalar ikkita katta guruhga ajratildi.

1. Ijtimoiy normalar

2. Texnik normalar

Mazkur bo'linish tartibga solish predmetiga asoslanadi ya'ni agar ijtimoiy normalar kishilar va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan bo'lsa, texnik normalar esa odamlar bilan tashqi dunyo. Tabiat. Texnika o'rtasidagi munosabatlarda tartibga solish vazifasini bajaradi.

Shu jihatdan texnik normalar "Inson va mashina", "Inson va mehnat quroli", inson va ishlab chiqarish" tipidagi, ya'ni inson bilan uni o'rab turuvchi jonsiz predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Texnik normalar. Tabiiy va suniy obyektlar bilan munosabatda bo'lishning eng oqilona usullar va vositalarni, shu jumladan, texnologik apparatlarni izchilligi va mazmunini belgilab beradi.

Ijtimoiy normalar. Odamlar xulq atvorining umum e'tirof etgan yoki keng tarqalgan namunasi, ko'rsatkichi qoidalari, ular o'zaro aloqalarni tartibga solish vositasidir.

Ijtimoiy normalar belgilash va tartiblash usullarga ko'ra huquq normalri-axloq normalari, urf-odat normalar, karparativ normalar bo'yicha tasniflanadi. Tartibga soluvchi munosabatlar sohada mazmuni bo'yicha –siyosiy, tashkiliy etish, estetik va boshqa normalar amal qiladi.

Ijtimoiy normalar shakllari to'g'risida turli dovurlarda o'sha dovur olimlarning yuritgan fikr mulohazalari nazariyalari mavjud. Abu Nasr Farobiyning fikricha, insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo'lib, ular bir –birlaridan tillari, urf-odatlari va boshqa xususiyatlari bilan farq qiladi.¹

Abu Rayhon Beruniy urf-odatlari tadqiq etar ekan, ularning ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. O'zaro aloqa va aloqaning uzulishi – xalqlar o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlardir. O'zaro bir-birini tushunish uchun aloqa bog'lash yo'lini tanlagan ma'qul, zero, o'zaro aloqalar vaqtida ravshan ko'rinuvchan narsalar ajralgan holatda maxfiy bo'lib qoladi.

Ijtimoiy normalar har qanday munosabatlarni emas, balki eng tipik, eng ommalashgan munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqning mohiyatini teran anglab olish uchun uning jamiyatdagi boshqa kishilar faoliyatini tartibga solishda qatnashadigan (tartibga soluvchanlik) rol o'ynaydigan ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro aloqadorligini qarab chiqish zarur.

Mazkur ijtimoiy normalar tizimida huquq va axloqning o'zni o'zgacha. Garchi ularning ikkalasi ham insonlarning hatti-harakati, yurish –turishiga ta'sir etuvchi vositalar bo'lsa-da, biroq har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Demak, huquq normasi nima? degan savolga javob beramiz. Huquq normasi- davlat tomonidan o'rnatilgan yoki tasdiqlangan. Hamda uning tomonidan muhofaza etiladigan umum majburiy rasman belgilab qo'yilgan xulq-atvor qoidalari tushunilishidir.

¹ Кудряцев В.Н. Правовое поведение. Москва 1982 бет
Фаробий Ас-сиёсат ал-Мадания. Хайдаробод 1927

Axloq –ijtimoiy ongning bir shakli bo'lib, u o'zida insonlarning yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik halol va harom, ezgulik va gunoh to'g'risidagi qarashlari; tasavvurlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Huquq va axloq o'zaro umimiy jihatlrga ham ega, ayni paytda bir-biridan ancha farq qiladi, biroq bunga qaramay, ikkalasi ijtimoiy hayotda birgalikda amal qilishadi.

Jamiyatda huquq va axloqning o'zaro harakati murakkab, ko'p qirsak jarayondir. Huquq, chunonchi, axloqqa faol ta'sir etib uning jamiyatda chuqur ildiz otishiga yordam beradi, ayni paytda esa huquqning o'zi jamiyatdagi mavjud axloq qoidalari ta'siri ostida doimo boyib boradi.

Huquq va axloq real kundalik hayotda bir-birini to'ldirish, o'zaro boyitib amal qiladi va ulardan bunday hoyemkorligi.

Huquq bilan axloqning o'rtasidagi o'zaro nisbat ancha murakkabdir.

Bu nisbat **to'rt tarkibiy qismdan: birlik, farqlanish, o'zaro bog'liqlar va ziddiyatdan iborat** ekanligiga e'tibor qaraylik. Quyida ularni batafsil roq ko'rib chiqamiz.

Huquq va ahloqning birligi quyidagilarda oz ifodasini topadi:

- **birinchidan**, ular birgalikda normativ tartibda solish tizimini tashkil etuvchi ijtimoiy normalardan iboratdir;
- **ikkinchidan**, falsafiy nuqtai nazardan huquq va axloq – iqtisoqiy, madaniy va boshqa omillar hamda sababiyatlar bilan bir xil darajada bog'liq bo'lgan ustkurma kategoriyalar bo'lib, bu holat ularni ijtimoiy bir turga mansub qilib qo'yadi.
- **uchinchidan**, butun xalq manfaatlarini ifoda etuvchi amaldagi chinakam xalq hokimiyatini, demokratizm, davlatchilik ularning yagona siyosiy poydevoridir;

- **to'rtinchidan**, huquq va axloq mavjud ijtimoiy munosabatlardan iborat birdan – bir boshqarish obyektlarida ega hamda ularning har ikkalasi ham bir xil odamlar va jamoalarga yo'naltirilgan;
- **birinchidan**, huquq va axloq normative hodisalar sifatida odamlarning zarur va mumkin bo'lgan xatti – harakatlarni chegaralarni belgilaydi; shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni uyg'unlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- **oltinchidan**, inson faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida ular kishi irodasining erkinligi, xatti – harakatlarini tanlash inkoniyatlariga asoslanadi;
- **yettinchidan**, huquq va axloq oxir – oqibayni bir xil vazifa ijtimoiy hayotni tartibga solish va takomillashtirish, uhga tashkiliy asoslarni kiritish, adolat va insonparvarlik tamoyillarini qaror topshirish vazifalarini ko'zda tutadi;
- **sakkizinchidan**, huquq ham, axloq xam chuqur asosga ega bo'gan tarixiy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy va ma'daniy ko'rsatkichlari sifatida maydonga chiqadi. Huquqning maqsadi – “odamlarning birgalikdagi hatotini to'qnashuvlar, o'zaro kurashlar, keskinliklar, bahs – munozalar va hokazolarga imkoni borocho kamroq ruhiy quvvat sarflanadigan tarzda tashkil etishdir”¹.

Ayni paytda biz ko'rib chiqqan umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda huquq va axloq jiddiy farqlarga ham ega. Bunda ana shu farqlar yuridek fan uchun ko'proq ahamiyatga moliqdir.

Xuddi shuning uchun ham huquq va axloqning alomatlari g'oyat sinchkovlik bilan tahlil etishni talab qiladi.

Binobarin, huquq va axloqning bir – biridan farqlanuvchi xususiyatlarni ko'rib chiqishimizga to'g'ri keladi.

1.Huquq va axloq bir – biridan, eng avvalo, belgilanish, shakllanish usullari va manbaalari bo'yicha farq qiladi.

¹ Ильин И. Порядок или беспределю М, 1917,24-бет

Huquqiy normalar davlat tomonidan va faqatgina davlat tomonidan yoxud uning roziligi bilan yarim jamoat tashkilotlari tomonidan yaratiladi yoki tasdiqlanadi. Davlat tomonidan ular bekor qilinadi, to'ldiriladi va o'zgartiriladi.

Shu ma'noda davlat huquqning siyosiy ijodkori hisoblanadi, huquqiy ijodkorlik istisnosiz faqat davlatdagina beriladigan imtiyozdir.

Shuning uchun huquq xalqning oddiy irodasini emas, balki uning davlati irodasini ifodalatdi va binobarin, oddiy tartibga soluvchi sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarning maxsus davlat tartibga soluvchisi sifatida maydonga chiqadi.

Axloq boshqacha tarzda tarkib topadi. Uning normalari bevosita davlat tomonidan emas, butun jamiyat tomonidan yaratiladi. Bu normalar doimiy ravishda odamlar amaliy faoliyati, ularning o'zaro aloqalari jarayonida paydo bo'lib, rivojlanib boradi.

Yangi axloqiy qadriyatlar o'z andozasiga ega bo'lishi mumkin bo'lsa – da, hamisha ham namuna, o'rnak bo'lavermaydi. Chunki eski salbiy hodisalarga barham borib ulgurmay, yangilarning paydo bo'lishi shundan dalolat beradi.

Axloq normasi mavjud bo'lish, yashab qolish huququni qo'lga kiritishi uchun rasmiy hokimiyat roziligining hojati yo'q; jamiyat, sinf, ijtimoiy guruh, jamoaning, ya'ni unga rioya etishni mo'ljallaganlar etirofining o'zi kifoya. Axloqiy og'itlar ijobiy qonunchilik quroli bo'lib olmaydi.

Bu holat davlat axloqning shakllanishiga hech qanday ta'sir o'tkasma ekan – da, degan ma'noni anglatmaydi.

Davlat huquq orqali, siyosat, mafkura, matbuot, butun ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali shunday ta'sirni o'tkazadi. Biroq davlat axloq nomlarini to'ridan – to'g'ri o'zi o'zgartira olmaydi.

Yana bir xususiyat to'g'risida to'xtalamiz. Har danday davlatda shu davlat tomonidan vujudga keltirilgan yagona huquq amal qiladi. Ayni paytda axloq hatto bir davlatning o'zida ham yagona va bir xil bo'laydi.

U sinfiy, milliy, diniy, kasbiy va inson turmushining boshqa jihatlariga bog'liqdir. Bu hol huquqning davlat bilan kelib chiqishi bo'yicha aloqasini hamda axloqda bunday aloqadorlikning yo'qligini yana bir bor isbotlaydi.

2. Huquq va axloq ularni ta'minlash usullari bo'yicha bir – biridan farq qiladi.

Huquq davlat tomonidan yaratilib, joriy etilgan ekan, uning tomonidan ta'minlanadi, muhofaza etiladi va himoya qilinadi. Aslida bunda “davlat qonun yo'li bilan mustahkamlangan muayyan huquq – tartibotni o'rnatuvchi va himoya qiluvchi umumiy, yani ommaviy hokimiyatning huquqiy shaklisifatida» namoyon bo'ladi¹. Shuning uchun ham huquqning ortida huquqiy normalarga rioya etilishini kuzatib, uni bezuvchilarni jazolovchi majburlov mahkamasi turadi.

Zero, huquq iltimos ham, maslahat ham, hoxish ham emas, balki butun jamiyat a'zolariga qaratilgan hamda aynan ularning manfaatning yo'lida majburlov inkoniyati bilan mustahkamlangan hokimiyat talabi, amri, ko'rsatmasidir. Shu ma'noga huquqiy normalar umum majburiy mohiyatga ega.

Shu tariqa huquqdan majburlov holati mavjuddir. Bu siz u kishilar hayotining ta'sirchan tartibga soluvchisi, hokimiyat quroli bo'la olmas edi. Bu – albatta, huquq “jazo shamshiri “ bo'lishi kerak, degan ma'noni anglatmaydi. Majburlov tahdidi – qonun bilan zidiyatga borilganda qo'llash uchun mo'ljallangan imkoniyat.

Jamoatchilik fikri kuchiga tayanuvchi axloq, majburiy tahdididan farqli o'laroq, butunlay boshqa tarzda amal qiladi. Axloq qoidalarni buzish rasmiy

¹ Бу ҳақда батафсилроқ қаранг: Нерсесянц В.С. Общая теория права и государства. Изд. НОРМА, 2001, 77-78-бетлар.

hokimiyatini aralashishini, yuridik jazolarni qo'llashni taqazo etmaydi. Axloqiy jihatdan odam ablax bo'lishi mumkin, biroq biron – bir huquq buzarlilik hatti – harakatini sodir etmagan bo'lsa, u sut “yuridik” javobgarligiga tortilmaydi. Shunday holatlarga bunday shaxslarga nisbattan qandqy ta'sir ko'rsatishning janiyatning o'zi hal etadi. Shuni ham unutmaslik joizki, bunday ta'sir chorasi ba'zan huquqdan ham qattiqroq va tasirchanroq bo'lishi mumkin.

3. Huquq va axloq ifoda, qayd etish shaklida ko'ra farq qiladi.

Agar huquqiy normalar davlat yoki jamoat tashkilotining maxsus yuridik xujjatlar (qonunlar, farmonlar, qarorlar) da mustahkamlanib, umuman keng qo'llamli va keng tarmoqli qonunchilikni tashkil etuvchi tegishli kodekslar, to'plamlar, nizomlarda guruhlariga ajratilib, tartibga solinsa, axloqiy normalar bunday aniq ifodaga ega bo'lmaydi, qolaversa, qayd ham etilmaydi, tayyorlanmaydi ham.

Buning ustiga ular ijtimoiy hayot ishtirokchilari bo'lgan odamlar ongida paydo bo'ladi va yashayveradi. Ularning paydo bo'lishi also qonun chaqiruvchilar yoki boshqa huquq ijod qiluvchi shaxslar irodasida bog'liq bo'lmaydi.

Axloq normalari va qoidalari jamiyat turli qatlamlari va guruhlarida muayyan ijtimoiy shart – sharoitlar ta'sirida vujudga kelar ekan, keyinchalik keng tarqaladi hamda barqaror hulq – atvor qoidalari va dalillarga aylanadi.

Bunda biron – bir axloq normasining oaydo bo'lish vaqtini ham, sababini ham, tartibini ham, uning amal qilish muddatini ham aniq ko'rsatish mumkin emas.

Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, axloq normalari faqat bitilmagan o'g'itlar va talablardan gina iborat og'iz – og'izdan o'tib yuruvchi paydnomalar emas. Ularning ko'chiligi turli jamoat tashkilotlarining xilma – xil dasturiy xujjatlari va nizomlarida adabiy va diniy yodgorliklarda, tarixiy yilnomalarda o'z

ifodasini topgan. Boz ustiga, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar moddalari va bandlariga kirgan axloq normalari ham oz emas.

Shuni ham aytib o'tish kerakki; "Axloq normalari ayrim jiddiy munosabatlarda diniy normalardan farq qiladi. Chunki axloq qoidalari belgilanayotganidayoq inson o'ziga va vijdoniga xavola etilgan bo'ladi"¹.

4. Axloq va huquq kishilar ongiga ta'sir etish xususiyati va usullariga ko'ra bir – biridan farq qiladi.

Agar huquq subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ularning yuridik huquq va majburiyatlari – haqqoniylik va nohaqlik, qonuniylik va g'ayriqonuniylik, jazolanish va jazolanmaslik nuqtai nazaridan tartibga soladigan bo'lsa, axloq inson qilmishlariga ezgulik va yovuzlik, maqto'v va qoralash, halollik va nopoklik, olijanoblik va pastkashlik, vijdon, or – nomus, burch nuqtai nazaridan yondashadi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ularning baholash kategoriyalari, ijtimoiy mezonlari turlichadir. Shu jihatdan huquq normalari taqiqlanadigan va ruxsat etiladigan xatti – xarakatlarning yetarli darajadagi aniq manzarasini ifoda etadi.

Ayni chog'da muayyan qoidani buzganlik uchun jazo choralarini belgilab, xulq – atvorlarning zarur turuni aniq ko'rsatib beradi. Axloq normalari esa oldindan belgilanadigan javobgarlik mezonlarida ega emas va ularning ko'zda tutmaydi ham.

5. Huquq va axloq ularni buzganlik uchun javobgarlik mohiyatini va tartibi bo'yicha bir – biridan farq qiladi.

¹ Ильин И.А. Теория права и государства/Под редакцией и с предисловием В.А. Томсинова.М., "Зерцало", 2003, 84-бет

Xuquqbuzarlik harakatlari oddiy javobgarlikni keltirib chiqaribgina qolmay, balki maxsus - yuridik javobgarlikni ham yuzaga keltiradi. Ayni paytda jazo taminlash tartibi qonun bilan qat'iy chegaralanib qo'yilgan. Demak, odamga davlat tomonidan jazo taminlanadi.

Axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik mutlaqo boshqa oqibatlariga olib keladi. Bu yerda aniq bir jazo chorasi ko'da tutilmaydi. Beriladigan jazo qoidabuzarlikni axloqiy qoralash, unga tanbeh berish, jamoatchilikda ta'siri choralarini qo'llashda ifodalaydi. Masalan, xayfsan, tanbeh berish, tashkilot sifatidan chiqarib yuborish, aloqani butunlay uzish kabi choralar qo'llanishi mumkin.

Bunda davlat oldida javobgarlik emas, balki jamiyat, jamoa, oila, qolaversa boshqa bir odam oldida mas'uliyat yuzaga keladi.

6. Huquq va axloq inson xulq - atvoriga nisbatan qo'yiladigan talablar darajasi bo'yicha ham bir – biridan farq qiladi.

Garchi ayrim qilmishlar uchun yuridik qonunlar ancha jiddiy jazo choralarini ko'zda tutishini bilsak – da, shaxs oldida ko'plab talasblarni qo'yuvchi axloqning ta'sir darajasi albatta bir muncha yuqori turadi. Chunonchi, axloq nopoklik, yolg'onchilik, tuxmat, aldovning har qanday ko'rinishini keskin qoralaydi, huquq esa faqat ularning eng xavfli ko'rinishlarininggina oldini oladi.

Ko'rinib turibdiki, axloq jamoatchilikda qarshi qaratilgan harakatlarning hech qanday turiga toqat qilolmaydi, huquq esa bunday harakatlarning eng yovuz ko'rinishlarinigina jazolaydi. Shuni alohida o'qib olish kerakki, biz bunday yondashuv bilan huquqni axloqiy tushinish lozim degan fikrni ilgari surmoqchi emasmiz. Biz bunday qarashlarni mutlaqo oqlamaymiz. Zero, huquq va axloq o'ziga xos, mustaqil mazmun – mohiyatga ega tushunchalardir. V.S.Nersesyanis ta'biricha ; “ Huquqni axloqiy tushinish faqat huquqning emas, balki axloqning ham mohiyatini muqarrar buzadi, chunki huquqning axloqiylashtirishning, xech

shubhasiz, axloqning yuridiklashtirilishi bilan birga kechadi. U holatda xam, bu holatda ham huquq va axloqning mazmuni va mohiyati ixtiyoriy ravishda belgilanadi”¹.

Biroq, ma’naviy jihatdan olib qaraganda, huquqning axloqan to’g’ri, risoladagidek bo’lishi, ya’ni “axloqiy qonun (axloqiy pozitiv huquq) ning va axloqiy davlatning axloqan asoslanishi”² mantiqlidir.

Inson xulq – atvoriga nisbatan qo’yiladigan talablar darajasi bo’yicha huquq va axloqning yana bir farq qiladigan jihati shundaki, axloqiy odamlar qilmishlarini vijdon kategoriyasiga taqqoslaydi, ularni faqat qonun ko’rsatmalariga emas, balki burch da’vatiga ham quloq tutishga chiqaradi.

Huquq insonni hamisha va hamma narsada oxirigacha halol – pok, vijdonli, haqiqatgo’y, adolatli, mehribon, olijanob bo’lish, qahramonliklar ko’rsatishga majbur qilolmaydi. Qonun yo’li bilan ko’rsatma berish orqali bunga erishib bo’lmaydi. Axloq esa bunga da’vat etadi. Shuning uchun ham axloq odamlarni o’rta miyonalikka emas, balki yuksakliklar sari – chinakkam baxt – saodat va istiqbol sari chorlaydi.

7. Huquq va axloq amal qilish sohalari bo’yicha farq qiladi. Axloqiy makon huquqiy makondan ancha kengdir.

Ma’lumki, huquq ijtimoiy hayotning ko’p qirralarini chetga qoldirib, uning eng muhim sohalarigina tartibga solib boradi. Bunda odamlar o’zaro aloqalarning muhabbat, do’stlik, o’zaro yordam, did – farosat, moda, rahm – shafqat kabi jihatlari huquq doirasidan chetga qoldi.

Kishilar o’rtasida munosabatlarning bu sohalariga huquqning kirib borishi, birinchidan, ularning tashqaridan nazorat qilib bo’lmasligi bilan, ikkinchidan, davlat manfaatlari nuqtai nazaridan bunday qilishning ma’nosi yo’qligi bilan,

¹ Нерсисянц В.С. Общая теория права и государства. 90-бет

² Ўша манба, 91-бет

uchinchidan esa, bu loaqal demokratiya va insonparvarlikka zid bo'lgani uchun hm mustasno etiladi. Bu yerda axloq, odob va boshqa ijtimoiy normalar, an'analar amal qiladi.

Huquqdan farqli o'laroq, axloq kishilik jamiyatining tub – tubigacha, barcha qavakchalariyu uyachalarigacha kirib boradi. Shuning uchun axloq bergan baho insonlar o'zaro munosabatlarning barcha shakllari, turlari uchun muhim va zarurdir.

Biroq ayni paytda shuni ham e'tibordan soqit qilmaslik, kerakki, huquq va axloq amal qilishi jihatidan qisman bir – biriga mos kelmasligi mumkin. Biroq asosan ular bir – birini yo'ldiradi.

Bu – qariyb barcha ijtimoiy munosabatlar ham huquqning, ham axloqning tartibga solish predmetining tashkil etadi deganidir. Bu o'rinda shunday nisbat ko'zra tashlanadi; **huquq tomonidan tartibga solinadigan hamma narsani axloq ham qamrab oladi, biroq axloq tomonidan tartibga solinadigan hamma narsa ham huquq tomonidan tartibga solinavermaydi.**

8.Falsafiy jihatdan huquq bilan axloqning farqi shundaki.

Axloq (siyosat, mafkura, fan, san'at, va hokazolar bilan bir qatorda) ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida maydonga chiqadi, biroq huquq haqida bunday mulohazalar yuritilib bo'lmaydi.Chunki ijtimoiy ong shakli sifatida huquq emas, balki huquqiy ong, ya'ni huquqqabo'lgan qarashlar namoyon bo'ladi. Qonunchilikka, odatda, g'oyalar, tasavvurlar sifatida emas, davlatning bir belgisini, uning tuzilmalaridan biri, qolaversa, quroli sifatida qaraladi. Albatta, bu kabi tushunchalar bir – biri bilan chambarchas chatishib ketganiga qaramay, jamiyatda hukmron bo'lgan huquqiy qarashlar aynan shu qonunlarning o'zida mujassamlashadi.

9. Nihoyat, huquq va axloqning tarixiy taqdiri turlichadir.

Axloq tarixiy kelib chiqishi jihatidan ancha, qadimiy bo'lib, u insoniyat jamiyatida hamisha mavjud bo'lgan va bundan biyon ham mavjud bo'lishi tabiiy. Pozitiv huquq esa ijtimoiy evolutsiyaning muayyan bosqichidagina yuzaga kelgan hamda kelajakda uning taqdiri, butunlay boshqacha kechishi ham ehtimoldan holi emas.

Huquq va axloqning umumiy va bir – birlaridan farq qiluvchi xususiyatlari shulrdan iborat. Bunda shuni ham nazarda tutish kerakki, huquq bilan axloq o'rtasidagi tafovut chegara bir bor belgilaganicha hamisha o'zgarishsiz qolib ketmaydi. Demakki, huquq va axloq ijtimoiy taraqqiyot, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bog'liq holda u yoxuq bu tomonga qarab o'zgarib borishi mumkin. Biroq bunday yondashuv quyidagi kabi savollarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi tabiiy ; Hozir huquq tomonidan tartibga solib borilayotgan jihatlar boshqa bir vaqtga kelib, faqat axloqiy ta'sir obyektiga aylanib qolishi yoki aksincha, bo'lishi mumkinmi? Hatto bir turdagi jamiyatning o'zida, lekin turli davrda huquq va axloq o'rtasidagi nisbat keskin o'zgarishiga yuz tutadi?.. Bu kabi savollarga javob qanday bo'lishini albatta kelajak, istiqbol ko'rsatadi.

Huquq bilan axloqning o'zaro munosabati va o'zaro nisbati to'g'risida gapirganda, ularning tartibga soladigan munosabatlar doirasi to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvoffiqdir. Huquq bilan axloqning tartibga soladigan munosabatlarning farqlashda huquq bilan axloq birgalikda tartibga soladigan munosabatlar doirasining hamda faqat axloq yoki faqat huquq orqali tartibga solinadigan munosabatlar doirasining belgilab olishi muhim. Huquq, odatda yuridik vositalar tizimi yordamida huquqiy munosabatlarni isbotlash, amalgam oshirish mumkin bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi. Masalan; buzilgan huquqni isbotlash va undan kelgan zararni aniqlash va qoplash mumkin bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi muhimi, bu huquqiy munosabatlar davlatninig vakolati organi tomonidan muhofaza etiladigan va lozim bo'lsa, davlat majburlovi qo'llana oladigan bo'lishi kerak.

Odamlar o'rtasidagi mehr – muhabbat, do'stlik, yaqinlik va o'zaro yordam munosabatlar bevosita axloq normalarning tartibga soladigan ob'yekt hisoblanadi va huquq bu munosabatlarga aralashmaydi, va aralashishi maqsadga muvofiq ham emas. Ayni paytda axloq aralashmaydigan, u “ befarq “ qaraydigan sohalar ham mavjud, xususan fuqarolarning turli birlashmalariga, texnik yuridik normalar doirasida, davlat organlarining vakolatlari doirasida shu kabi munosabatlar axloq baho bermaydi.

Axloq normalari insonlarning ichki tuyg'ulari, o'rganish kuchi asosida amalgam oshiriladi, bunda ichki kafolat tariqasida insonning vijdoni, tashqi kafil sifatida esa jamoatchilik, mahalla fikri, ularning bahosida namoyon bo'ladi. Huquq bilan axloq o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir etish munosabatlari mavjud. Huquq ko'pincha axloqqa asoslanadi, shu bois axloqning huquqqa ta'siri katta, ayni paytda huquq axloqiy qoidalarining ham himoyachisi sifatida amal qiladi.

Huquqiy ong deganda jamiyatda kishilarning huquq to'g'risidagi qarashlari tushuniladi. Huquqiy ong huquqiy normalarni qabul qilish, ularni amalda qo'llash uchun xizmat qiladi. Huquqiy ong – huquqiy psixologiya va huquqiy mafkuradan iborat.

Huquqiy psixologiya bu huquqiy xis-tuyg'ular, huquqiy odatlar, an'analar yig'indisidir.

Huquqiy mafkura bu huquqiy g'oyalar, nazariyalar, tushunchalar, printsiplar yig'indisidir.

Huquqiy ong yaxlit ijtimoiy ong tizimiga uning aloxida elementi sifatida kiradi. U ijtimoiy turmushning murakkab tarkibida aloxida ijtimoiy xodisa bo'lganligi sababli mafkuraviy va siyosiy qarashlarning ta'siriga uchraydi. Huquqiy ongning amaliy funksiyasi ikki yo'l bilan ro'yobga chiqadi:

- huquqiy ong huquq normalarining g'oyaviy manbai bo'ladi;

- u odamlarning xulq-atvoriga mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy ong huquqiy ustqurmaning etakchi elementi hisoblanadi, unga shuningdek huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, yuridik normalarni qo'llash hujjatlari, qonunchilik, huquq-tartibotlar kiradi. huquqiyong davlat belgilab qo'yishi kerak bo'lgan umumiy axamiyatga molik xulq-atvor qoidalariga bo'lgan extiyoj jamiyat, ijtimoiy guruh, individ tomonidan anglab olinishi ham, shuningdek amaldagi huquqiy tartibning adolatli ekanligi, huquqni yanada rivojlantirish istiqbollari, yo'nalishlari baholanishini ham o'z ichiga oladi.

Huquqiy ong tarkibiga zarur tarzda uchta dastlabki element kiradi:

- huquqiy tushunchalar;
- huquqiy xis – tuyg'ular;
- xoxish iroda.

Har bir element huquqiyongni keltirib chiqargan extiyojga xizmat qilishda o'z xolicha qatnashadi va huquqiy ongning amal qilishi jarayonida o'ziga xos bo'lgan aloxida rolni bajaradi. Huquqiy ong huquq bilan mushtarak tabiatga ega va u jamiyat, turli ijtimoiy guruxning ob'ektiv ravishda kelib chiqqan extiyohlari hamda manfaatlarining bevosita ta'siri ostida shakllanadi, o'zgarib borayotgan ob'ektiv shart-sharoitlar va jarayonlar ta'siri ostida doimiy rivojlanadi. Huquqiy davlat tomon ilgarilab borgan sari huquqiy normalar emas, balki aynan huquqiy ong ijtimoiy jixatdan xulq-atvorni rag'batlantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy ongni va yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ma'lumki, jamiyatda yashab turib, undan xoli bo'lish mumkin emas. Shu sababli, ijtimoiy majburiyatlarni ixtiyoriy va ongli ravishda bajarish -

demokratiyani yanada rivojlantirish, ijtimoiy intizomni mustaxkamlash, insonni tarbiyalashning zarur shartidir.

Huquqiy bilimlar, bilish natijasi sifatida, huquqiy ongning asosini tashkil etadi. Shu sababli, huquq normalarida mustaxkamlab qo'yilgan xulq-atvor qoidalari fuqarolarga albatta ma'lum bo'lishi, ulap tomonidan tushunilgan va anglangan bo'lishi shart. Ayni vaqtda, huquqqa huquqiy ongning bir elementi deb qarash huquqiy bilimlarning hajmi va teranligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu element huquqiy ong mazmuni va darajasining asosiy ko'rsatkichidir. Fuqaroning butun xulq-atvori ijtimoiy huquqiy voqelikka munosabatning namoyon bo'lish shaklidir.

2.2. Huquq funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning muhim yo'nalishi.

Huquqning funksiyalari to'g'risidagi fikrimizni "huquq funksiyasi" tushunchasining ko'p yillik tadqiqotlar tajribasi hanuz muammoni bir qolipda talqin etishga olib kelmaganiga e'tiborni jalb qilishdan boshlashni maqsadga muvofiq deb topdik. Lekin ushbu masala yuzasidan turli nuqtai nazarlarni guruhlariga ajratadigan bo'lsak, u holda **funksiya deganda yo huquqning ijtimoiy vazifasini, yoki ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sirni yo'naltirishni, yohud ularning har ikkalasi birgalikda tushunilishiga** ishonch xosil qilish mumkin.

Bizning nazarimizda, huquqning funksiyalari tushunchasi bir vaqtning o'zida huquqning vazifasini ham, shuningdek, bundan kelib chiqadigan uning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri yo'nalishini ham o'z ichiga olishi lozim. Binobarin, huquqning biron-bir funksiyasi mazmunini ochib berishda hamisha huquq vazifasi uning yo'nalishi bilan bog'liqligini hamda ushbu yo'nalish huquqning vazifasiga

bog'liqligini yodda tutish kerak bo'ladi. **Aslida huquqning funksiyalari- uning ijtimoiy vazifasi amalga oshirilishidir.**

Shu o'rinda: "Huquqning ijtimoiy vazifasi nima-yu, huquqiy ta'sir deganda nimani tushunmoq kerak?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Huquqning **ijtimoiy vazifasi** ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan tarkib tipadi. Huquqning bu vazifasini ana shu ehtiyojlarning huquqni muhozafa etish faoliyati ko'rinishida ifodalangan davomi deyish mumkin. Muayyan munosabatlarni mustahkamlash, ularni tartibga solish yoki muhofaza etishga yo'naltirilgan qonunlar aynan shu ehtiyojlar, ijtimoiy zaruratlar asosida yaratiladi.

Huquqning funksiyalari- eng avvalo, uning o'ziga xos hususiyatlari namoyon bo'lishi ekanligini ta'kidlash joiz. Funksiyalarda huquqning mustaqilligidan kelib chiquvchi belgilari mujassamdir. Faqat huquqning o'zigagina emas, balki ijtimoiy hayotning normativ hususiyatga ega boshqa hodisalariga ham xos bo'lgan umuman har qanday belgilari huquqning funksiyasi bo'lavermaydi. Shuning uchun bu o'rinda **huquq funksiyalarini ijtimoiy munosabatlarga ta'sir o'tkazish yo'nalishi sifatida tavsiflovchi belgilarni** ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

1. Huquqning funksiyasi uning mohiyatidan kelib chiqadi hamda huquqning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi. Ba'zi huquqshunoslar ta'biriga ko'ra, funksiya- huquq mohiyatining ijtimoiy munosabatlarda "yolqinlanishi"dir. Biroq huquqning funksiyalarini uning mohiyati bilan tenglashtirish noto'g'ri bo'lardi, chunki funksiya huquq mohiyatidan muayyan darajada mustaqildir.

2. Huquqning funksiyasi uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining shunday yo'nalishiki, uning amalga oshirilishiga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy hodisa sifatida huquqning zaruratini taqozo etadi. Aytish mumkinki, funksiya huquqning muayyan bir davr uchun eng zarur ta'sir yo'nalishi, ya'ni jamiyat uchun favqulodda ahamiyatli yo'nalishini belgilab beradi.

3. Funksiya huquqning eng muhim xususiyatlarini ifodalaydi va u huquq taraqqiyotining muayyan bosqichida uning oldida turgan tub masalalarni hal etishga yo'naltiriladi.

4. Huquqning funksiyasi uning faol harakat yo'nalishidan iborat bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan ko'rinishini tartibga soladi. Aynan shuning uchun ham **jo'shqinlik, harakat, faoliyat-huquq funksiyasining eng muhim belgilari** deyish mumkin. Lekin bu belgilar undagi barqarorlik, muntazamlilik, sobitqadamlik va maqsadga yo'nalganlikni istisno etmaydi.

5. Huquqning funksiyasi muntazamliligi bilan ajralib turadi. Uning qo'llanishining uzluksizligi, davomiyligi shu bilan belgilanadi. Huquq rivojining muayyan bosqichida funksiyaning doimiy ravishda unga xos bo'lib qolishi jihatidan ham mazkur funksiyaning xususiyati haqida gapirish mumkin. Biroq bundan uni amalga oshirish omillari va shakllari o'zgarmay qolar ekanda, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak, albatta. Shubhasiz, ular amaliyot ehtiyojiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Hozirgi ilmiy tafakkurning ajralib turuvchi muhim xususiyatlaridan biri hisoblangan tizimli yondoshuv huquq funksiyalari mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Yuqarida huquq bir tizim sifatida idrok qilinishi hususida gapirib o'tgan edik. Bu huquq funksiyalarini ham yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Huquqning funksiyalari tizimi - murakkab, ko'ptarmoqli, ko'pbosqichli, quyidan yuqoriga va ma'lum darajada jo'shqin rivojlanuvchi tuzilmadir. Uni tuzishda huquqning **umumijtimoiy** funksiyasini asos qilib olish maqsadga muvofiq. U bir huquq tizimini jamiyatning yanada kengroq boshqa tizimiga qo'yish tartibini belgilaydi, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Huquqiy tizim tarkib topgan qismlarga muvofiq ravishda huquqning funksiyalari tizimini **besh guruhga**, ya'ni kichik tizimlarga bo'lish mumkin. Ular-huquqning barcha sohalariga xos bo'lgan **umumhuquqiy** funksiyalar kichik tizimi,

huquqning barcha sohalariga emas, balki uning ikki yoki undan ortiq sohalariga xos **tarmoqlararo**, huquqning faqat bir aniq sohasiga xos **tarmoq**, huquqning aniq bir tuzilmasiga xos **huquqiy institutlar funksiyalari**, normalarning aniq bir turiga xos **huquq normalari funksiyalaridan** iborat bo'ladi.

Turli hil darajadagi huquqning funksiyalarining o'zaro nisbati haqidagi masala muhim ahamiyatga molikdir. Aytaylik, u yoki bu umumhuquqiy funksiya o'zidan ancha quyi darajadagi funksiyalar tomonidan ko'proq yoki kamroq darajada aniqlashtirilishi mumkin. Masalan, jinoyat huquq funksiyalari umumhuquqiy muhofaza funksiyasini oila va yer huquqining tegishli funksiyalariga nisbatan ko'proq darajada aniqlashtiradi.

Umumhuquqiy funksiyalarni bo'lish imkonini beruvchi mezonlarning ikki guruhini sharli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin: bular- huquqning o'z doirasidagi joylashgan **ichki** hamda undan chetda turuvchi **tashqi** mezonlar.

Huquqiy yuridik, mahsus yuridik deb nom olgan funksiyalar tartibga solish va muhofaza funksiyalariga bo'linadi. Aynan ularning o'zi huquqni o'ziga xos, sifat jihatidan mustaqil tuzilma sifatida tavsiflaydi. Ijtimoiy hodisa sifatida huquqning mavjud bo'lishi ushbu funksiyalarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq, deb hisoblash mumkin.

Huquq vazifasini belgilab beruvchi ijtimoiy munosabatlarning hilma-hil turlari huquq funksiyalarini tasniflashning tashqi ob'yektiv mezoni hisoblanadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy -uch asosiy soha yoki tizimni ajratib ko'rsatamiz. Ushbu sohalargamivofiq tarzda uch funksiya -iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Huquqning bu funksiyalari, shuningdek, ijtimoiy funksiyalar deb ham ataladi.

Shundau qilib, huquqning ijtimoiy funksiyalarini ijtimoiy hayotining tegishli sohalariga huquqiy ta'sir o'tkazish yo'lishi sifatida ta'riflash mumkin. Jumladan, iqtisodiy funksiya iqtisodiy sohaga, siyosiy sohaga, tarbiyaviy funksiya ma'naviy

sohaga huquqiy ta'sir o'tkazadi.

Ayni paytda funksiyalar tizimi o'zgarib, bir bor berilganicha hamisha bir joyda qotib turadigan tizim emasligiga e'tiboringizni jalb etishni istardik. Chunonchi, tabiatni asrash tadbirlarining favqulodda dolzarb bo'lib qolganligi munosabati bilan ayrim olimlar huquqning ekologik funksiyasi mavjudligini asoslab chiqdilar. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy hayotning biron-bir sohasi umumahamiyat kasb etadigan bo'lsa, tegishli ijtimoiy, umumhuquqiy funksiyalarning mavjudligi haqidagi masalani qo'yish haqqoniy bo'ladi.

Huquqning haqiqiy yuridik funksiyalari tavsifi. Huquqning funksiyalari tizimida tartibga soluvchi funksiya yetakchi, belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Bu tabiiy holdir. Zero, huquqning asosiy ijtimoiy munosabatlarning tartibga solishdan iboratdir.

Tartibga solish funksiyasi haqida gap ketganda, huquqning sub'yektiv hatti-harakatlari ko'rinishlari bo'yicha ko'rsatmalar beridh, aniq ijtimoiy funksiyalarni amalda qo'llashda bo'lganidek, muayyan ijtimoiy sohaga nisbatan bermagan holda, irodaga ta'sir o'tkazish qobiliyati ko'z da tutiladi.

Tartibga solish funksiyalari doirasida **ikki kichik funksiya statik** tartibga solish va **dinamik** tartibga solish funksiyalari ajrakib turadi. Statik tartibga solish funksiyasi huquqning ijtimoiy munosabatlarga shu munosabatlarni biron-bir huquqiy institutda mustahkamlash yo'li bilan ta'sir o'tkazishida ifodalandi. Bu huquqiy tartibga solish vazifalaridan biri sanaladi. Huquq, eng avvalo, jamiyat barqarorligining asosi hamda uning manfaatlari va alohida shaxs manfaatlari iborat bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni yuridik jihatdan tasdiqlaydi, ularni "daxlsizlik" darajasiga olib chiqadi.

Statik funksiyaning amalga oshirishda milliy huquq tuzilmalari katta ahamiyat kasb etadi. Ularning yuridik mohiyati ijtimoiy tuzumning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashdan iborat. Statik funksiya boshqa institutlarda ham, shu

jumladan fuqarolarning siyosiy huquqlari va majburiyatlari institutida, saylash, mualliflik va ixtirochilik huquqida yaqqol o'z ifodasini topadi.

Dinamik tartibga solish funksiyasi huquqning ijtimoiy munosabatlarga - ularning harakatini, ya'ni dinamikasini rasmiylashtirish yo'li bilan ta'sir o'tkazishida ifodalanadi. Masalan, bu funksiya iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida xo'jalik jarayonlarini tartibga soluvchi fuqarolik, ma'muriy, mehnat huquqi institutlarida mujassamlashgan.

Huquqning tartibga solish funksiyasini tavsiflash uchun uni amalda qo'llash yo'llarini aniqlab olish muhimdir. Chunki ularning istalgan har biri huquq tizimi tomonidan amalga oshiriladigan butun tartibga solish jarayonida salmoqli o'rin tutadi.

Huquqning boshqaruv funksiyasini amalga oshirishning eng harakterli yo'llari yoki ta'bir joiz bo'lsa, qismlari: huquq normalari vositasida fuqarolarning huquqiy layoqatini aniqlash; fuqarolar huquqiy maqomini mustahkamlash va o'zgartirish; davlat organlari, shu jumladan mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilash; yuridik shaxslarning huquqiy maqomlarini aniqlash; huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga yo'naltirilgan yuridik faktlarni aniqlash va ko'zda tutish; huquq sub'yektlari o'rtasidagi aniq huquqiy bog'liqlik- tartibga soluvchi huquqiy munosabatlarni belgilab qo'yish; aniq ijtimoiy munosabatlarda qo'llash maqsadida huquqiy tartibga solishning eng maqbul turini aniqlash kabilar hisoblanadi.

Yuqorida aytganlarga tayangan holda huquqning tartibga solish funksiyasini ijobiy (pozitiv) xulq-atvor qoidalarini o'rnatish, jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga mos keladigan munosabatlarni mustahkamlash va ularni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida huquq sub'yektlariga sub'yektiv huquqlarni berish va yuridik majburiyatlarni yuklashda ifodalanuvchi huquqiy ta'sir o'tkazishning ijtimoiy vazifasidan kelib chiquvchi yo'nalish sifatida tavsiflash

mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish zarurati hamisha mavjud bo'lgan va jamiyat qancha vaqt yashasa -ushbu zarurat ham shuncha vaqt mavjud bo'ladi. Yuridik hodisa sifatida huquq har doim ham mavjud bo'laveradi. Biroq u paydo bo'ladi deguncha ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilishning muhim vositalaridan biriga aylangan. Huquqiy ta'sir o'tkazishning mazkur yo'nalishi huquqning muhozafa funksiyasini tashkil etadi.

Huquqning muhozafa funksiyasi- umumahamiyatga molik eng muhim iqtisodiy, siyosiy, milliy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni, ularning daxlsizligini muhofaza qilish, shuningdek, mazkur jamiyatga yot bo'lgan munosabatlarni siqib chiqishni maqsad qilib olgan huquqning ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq huquqiy ta'sir yo'nalishidir.¹

Binobarin, huquq, birinchida, umume'tirof etilgan fundamental ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiladi, ikkinchida, jamiyatga yot bo'lgan munosabatlarni siqib chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu holatni alohida ta'kidlash zarur. Chunki, muhozafa funksiyasining asosiy maqsadi -jamiyatga yot munosabatlarni siqib chiqarishdangina iborat, degan qarash masalaga biryoqlama yondoshuvning ifodasidir. Vaholanki, jamiyat hayotidan noxush hodisalarni siqib chiqish-huquqning ikkilamchi natijasi. Zotan, huquqning birlamchi vazifasi -muhozafa vositasi sifatida muhofazaga mihtoj munosabatlarni himoyalashdan iboratdir.

Biroq muhofaza funksiyasi istisnosiz faqat huquqbuzarliklar sodir etilgandagina amal qiladigan huquqiy harakat ma'nosida tushunish mumkin emas. Boz ustiga, ushbu funksiyaning asosiy vazifasi - huquq normalarini buzilishining oldini olishdan iborat. Huquq sub'yektlari uning ko'rsatmalaiga qanchalik ko'p itoat qilsa, taqiqlash talablarini qanchalik ko'proq ado etsa- muhofaza funksiyasining samarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Taqiq yoki jazo choralarining belgianganining

¹ Қаранг: Теория гусударства и права./Под ред.В.К.Бабаева.М, 1999,259-бет

o'ziyoq ayrim shaxslarga jiddiy ta'sir etadi, ularni huquqqa zid qilmishlaridan tiyib turadi. bu esa huquqiy ta'sir maqsadlaridan biriga erishilganini bildiradi, ya'ni muayyan ijtimoiy munosabat muhofaza etilgan bo'ladi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga e'tiboringizni tortishni istardik: muhozafa funksiyasini tartibga solish funksiyasiga qarama-qarshi qo'yish kerak emas. Boshqacha aytganda, muhofaza funksiyasi taqiqlar, jazo choralari, mas'uliyatni o'z ichiga olgani uchun negativ (salbiy), keyingisi esa huquq sub'yektlarining ijobiy faoliyatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgani uvhun pozitiv (ijobiy) funksiya degan ma'noda ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ularning har ikkalasi (albatta, har biri o'ziga xos yo'l bilan) ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashishdek muhim vazifani ado etadi.

Huquq funksiyalarini amalga oshirish shakllari. Huquq funksiyalarini o'z mexanizmiga ega. Huquq funksiyasi uch shakldagi, ya'ni ahborot, nazarda tutiladigan va huquqiy tartibga solish shakllaridagi huquqiy ta'sir omillaridir. Shundan kelib chiqqan holda huquq funksiyalarini amalga oshirishning uch shakli -ahborot, nazardatutilgan va huquqiy shakllari namoyon bo'ladi.

Huquq funksiyalarini amalga oshirishning axborot shakl kishilik xulq-atvoriga taalluqli davlat talablaridan ularni xabar qilib turish bilan bog'liq. Bunda fuqarolar huquq normalarini mazmuni haqida oladigan axborotlarni manbai hilma-hil bo'lishi mumkin, ular orasida rasmiy, ommaviy axborot vositalari, yuridik maslahat idoralari, advokatlar, tanish-bilishlar, qarindosh-urug'lar, ommabop yuridik adabiyotlar va hokazolarni sanab o'tish mumkin. Ayniqsa, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar davlat hokimiyati idoralari bilan halq ommasi o'rtasida aloqa bog'lovchi bosh bo'g'in sifatida faoliyat olib boradi. Ular uchun fuqarolarni kundalik ijtimoiy- siyosiy, davlat-huquqiy hayot voqealaridan tezkor, muntazam va ro'y -rost habardor qilib turish ustuvor vazifadir. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasi 2-

qismida belgilanganidek: "Qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanishining majburiy shartidir". Bundan ko'rinib turibdiki, qonunlarning hamda boshqa normativ hujjatlarning (ya'ni umummajburiy hatti-xarakat qoidalarini belgilaydigan huquqiy hujjatlarning) ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi ularni hayotga tatbiq etish sharti hisoblanadi.

Demak, huquq funksiyalarini amalga oshirish shakl sifatida huquqiy habardorlik g'oyat katta ahamiyatga ega. Biroq bugungi kunda uning ta'sirchanlik darajasi davr talablaridan ortda qolmoqda. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda jamiyatni tubdan o'zgarish bilan bog'liq ravishda qonun yaratuvchilik jarayoni qizg'in borayotganligi munosabati bilan bi hilat yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham fuqarolarimiz ayniqsa amaldagi qonunchilik to'g'risida, unga kiritilayotgan o'zgarishlar, qo'shimchalar, ba'zi moddalr, bandlarning chiqarib tashlanishi haqidagi huquqiy ahborotni olishga muhtojdirlar. Endilikda aholi barcha qatlamlarini qamrab oluvchi umumiy huquqiy o'quvni tashkil etish zarurati haqidagi masalaning hukumat darajasida ko'tarilayotganligi tasodif hol emas.

Huquq funksiyalarini amalga oshirishning yana bir ahamiyatli shakli yo'nalishli ta'sir ko'rsatishdir. Zero, faqat huquq normalarining o'zini bilishgina emas, balki fuqarolarda huquq qoidalari bo'yicha pozitiv ko'nikmalarni hosil qilish ham muhimdir. Bu o'z navbatida yo'nalishli huquq ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida huquqiy yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Huquqiy qoidalar fuqarolarni to'g'ri hatti-xarakatlarga, huquqiy faollikka undovchi pozitiv hamda huquqqa zid hulq-atvorga mayl tug'diruvchi negativ qoidalarfa bo'linadi. Aslida yo'nalishli huquqiy ta'sir ko'rsatishning vazifasi pozitiv ko'rsatishning vazifasi pozitiv huquqiy intilishlarni shakllantirishdan iboratdir.

Huquqiy ta'sir ko'rsatish tizimida huquqiy tartibga solish markaziy o'rin tutadi. Chunki u huquq uchun mahsus, bevosita yuridik ta'sir hisoblanadi hamda bu ta'sir jami huquqiy tartibga solish mexanizmini tashkil etuvchi huquqiy

vositalarning alohida tizimi yordamida amalga oshiriladi. Mazkur shakl doitasida huquq funksiyalarini amalga oshirish quyidagi qat'iy qoidalarni: tartibga solish samaradorligi shart-sharoitlarini, huquqiy tartibga solish jarayonlarini, tartibga solishning ijtimoiy natijalarini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Huquq va davlatning o'zaro nisbati.

Fanda huquq va davlatning o'zaro nisbati muammosi bo'yicha hali bir fikr kelinmagan. Chunonchi, jamiyat taraqqiyotining muayyan, ayni paytda juda erta bosqichida mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, o'zaro ayirboshlash bo'yicha kun sayin bir hil takrorlanadigan amallarni umumiy qoida bilan qamrab olish, har bir kishi ishlab chiqarish va o'zaro ayirboshlashning umumiy qoidalari va shartlariga bo'ysunishiga g'amho'rlik qilish ehtiyoji yuzaga kelgan, degan an'anaviy va yetarli darajada asosga ega bo'lgan fikr keng tarqalgan. Mazkur qoidalar dastlab urf-odatlarda o'z ifodasini topadi. Keyinchalik esa qonunga aylanadi. Qonu bilan birga, uning bajarilishini hamda shu qonunlarga rioya etilishini nazorat qiluvchi organlar ham paydo bo'ladi, ya'ni ommaviy hokimiyat, davlat vujudga keladi.

Xulosa

Huquq paydo bo'lgan davridan boshlab rivojlanib, taraqqiy qilib bordi. Uning insoniyat yurish-turish, xulq-atvoriga ta'siri ham shunga qarab rivojlanib bordi:

Huquq rivojlana borgani sari o'zining mohiyatini ahamiyatini, tushuncha sifatida qo'llanish doirasini kengaytira bordi. Takidlash joizki huquq,eng avvalo, tartibga soluvchi kuch sifatida ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. shuning uchun ham huquqning jamiyat hayotidagi o'rni va roli beqiyos hisoblanadi.

Huquqning mohiyati adolat va erkinlikni ta'minlovchi kuch sifatida

namoyon bo'lishidadir. huquq va erkinlik o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Huquq bir kishining erkinligini ta'minlash hisobiga boshqaning erkinligini ta'minlab beradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak huquq bu - erkinlikdir. Huquqning mohiyati individ erkinligini ta'minlashdir. erkinlik - bu inson ongli mavjudod sifatida rivojlanadigan o'ta muhim sharoitdir. Individ erkinligini ta'minlash masuliyati esa huquqqa yuklangandir. Huquq erkinlikning huquq erkinlikka aylanishiga sabab bo'ladi va erkinlik huquqiy xarakterga ega bo'lgandagina haqiqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Huquq tamoyillari ham huquqning aniq vazifalarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Huquq tamoyillari huquqning ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida mohiyatini ifodalovchi eng asosiy qarashlar, g'oyalar va qoidalaridir.

Huquqning ijtimoiy qiymati biz qurayotgan ochiq fuqarolik jamiyatida muhim, ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi: Bunda huquqning tartibga soluvchilik mavqei yaqqol ko'zga tashlanadi. Huquqning qimmati uning insofparvarlik g'oyalari bilan chuqur lug'orilganligidadir. Darhaqiqat, inson-hamma narsaning o'lchovidir. Huquqning insofparvarlik tabiati faqat uning shaxsga ne'matlar yo'lini ochib berishidagina emas, balki shaxsni himoya qilish, ijtimoiy himoyalanganlikning ta'sirchan vositasi sifatida maydonga chiqishidahamdir. Hozirgi vaziyatda bu alohida ahamiyatga ega. Biz endilikda mamlakatimizda huquq aholining eng nochor, ijtimoiy himoyalangan qatlamlarini muhofaza rtayotganining guvohi bo'lib turibmiz ko'p bo'ladi oilalarni, yoshlarni himoyalash, daromadlarni indeksatsiyalash hamda ang kam ish haqi pensalar, stipendiyalarni muntazam oshirib borish va hokazolar bo'yicha qabul qilinayotgan ko'plab qonunchilik hujjatlari bunga misol bo'la oladi. Demak huquq shunday ijtimoiy tartibga soluvchilik, bunda odamlarning birgalikda tinch yashashga imkon yaratishga qodirdir . Shuningdek, ijtimoiy harakatlarni yalpi farovonlik uchun safarbar qiladi.

Huquq normalari ijtimoiy normalar tizimida eng asosiysi bo'lib hisoblanadi.

Xalqimiz qon-qoniga singib ketgan, muqaddas dinimiz Islomning oliy kitobi Qur'onda e'tirof etilgan axloq normalari ham jamiyat taraqqiy qilgan XXI asrda huquq normalari kabi tartibga soluvchilik kuchini ko'rsatolmaydi.

Huquq funksiyalari ham huquqning ijtimoiy tartibga soluvchilik kuchini aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqning ijtimoiy funksiyalarini ijtimoiy hayotning tegishli sohalariga huquqiy ta'sir o'tkazish yo'nalishi sifatida ta'riflash mumkin. Jumladan, iqtisodiy funksiya iqtisodiy sohaga, siyosiy funksiya siyosiy sohaga, tarbiyaviy funksiya ma'naviy sohaga huquqiy ta'sir o'tkazadi.

Shunday qilib, huquq funksiyalari huquqning mohiyati va vazifasini amalga oshiradi, ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Huquqiy funksiyalari huquqning ijtimoiy vazifasi, ijtimoiy qiymati va uning ijtimoiy munosabatlar va odamlar yurish turishiga ta'sir etadigan asosiy yo'nalishlari bilan bog'liqdir. Biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatida huquqning tartibga soluvchilik o'рни, ijtimoiy munosabatlardagi roli beqiyos hisoblanadi.

Tavsiya va mulohazalar.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati sharoitida tabiiyki huquqning o'рни, uning tartibga soluvchilik kuchi asosiy ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan bu fanga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish tavsiya etiladi. Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov o'zining asarlarida, qator ma'ruzalarida mamlakatimiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida ekanligini ta'kidlaydi. Demak, yoshlarimiz kuchli, barkamol shaxs sifatida kamol topishi kerak. Bunda huquq fanlarining ham o'рни salmoqlidir. Yoshlarimizga huquq fanlarini ko'proq o'qitish, ayniqsa boshlang'ich ta'limdan boshlab ularga huquqning ijtimoiy munosabatlarda tartibga soluvchilik kuchi qanday ekanligini o'qitib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: O'qituvchi, 2008 y, b,15.33-betlar
2. Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondoshuvlar bilan qurib bo'lmaydi. Xalq so'zi. 2005-yil 17-fevral 2-bet
3. Alekseyev S.S. Права на пороге нового тысячелетия. М., "Статус", 2000, 11-12 бетлар
4. Илин И.А. Теория права и государства. М., "Зерцало", 2003, 69-72-бетлар
5. Islomov I.M. Huquq tushunchasi, mohiyati va ijtimoiy vazifasi T., 2004. 77-bet
6. Saburov H. Davlat va huquq nazariyasi/ o'quv uslubiy qo'llanma. TDYI. T, 2005.34-bet
7. Илин И.А. Собрание сочинений. Т."Москва", 1999.81-бет
- 8.Saidov A, Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi 1-jild. T.,Adolat, 2001. 100-101-betlar
9. Ismoilov I.M. Konstitutsiya va qonun ustunligi qonuniylik va huquq tartibotning zarur sharti. T., 35-bet
10. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T., Sharq, 2002.276-bet
11. Muhiddinov F. Hokimiyat, huquq, sud. Falsafa va huquq. 2004-y, №1. 19-bet.
12. Вебер М. Образ обществаю М., 1994.68-бет
13. Mersesyans V.S. Huquq falsafasi/ ma'sul muharrir Saidov A.X. T:Adolat, 2003.93-94 betlar
14. Farobiy. As-siyosat al-Madaniya. Haydarobot,1992-y.

15. Islomov I.M. Davlat va huquq nazariyasi. T.Adolat.2007,434-456-483-betlar
16. Javlijev N.B. Huquq funksiyasi va uning ijtimoiy qiymati. T: TDYI.2005,16-25-betlar
17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1991, 4-son,76-modda.
18. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va ma'naviyat. 103-bet
19. Xalilov E.H. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. T: O'zbekiston. 1997, 7-bet
20. Tadjixonov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. T.,O'zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi, 1998,49-bet.
21. Z.Yoqubov., E.Hayitboyev. “Huquqshunoslik”. T. ,“Yangi asr avlodi”, 2006,6-b.
22. N.Javlijev. “Huquq tushunchasi va uning ijtimoiy qiymati” T., TDYI,2005,4-b
23. M.Ahmadshoyeva, M.Najimov.”Huquq nima?”T.,TDYI,2003,9-b
24. Z.M.Islomov “Davlat va huquq nazariyasi” .T., Adolat,2007,465-467-b
25. O'razayev Sh. Konstitutsiyaviy sud qanday bo'lmog'i kerak? // Istiqlol yo'li. T., “O'zbekiston” 1995, 43-bet
26. Нерсесянц В.С. Общая теория права и государства. Изд. НОРМА, 2001, 77-78-бетлар.
27. Теория гусударства и права./Под.ред.В.К.Бабаева.М, 1999,259-бет.

Mundarija

Kirish	3
I. Huquq tushunchasi va mohiyati.....	5
1.1. Huquq tushunchasi, uning belgilari va mohiyati.....	5
1.2. Huquq tamoyillari va ularning tasnifi.....	13
II. Huquqning ijtimoiy qiymati.....	21
Ijtimoiy normalar tizimida huquqning o`rni.....	21
Huquq funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga ta`sir etishning muhim yo`nalishi.....	36
Xulosa.....	45
Foydalanilgan adabiyotlar.....	47